# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№5
MAXSUS SON

2026
NOYABR



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar · OPEN ACCESS · ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib · ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE · CYBERLENINKA
OpenAIRE · ROAD · INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE · Crossref · НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU

## BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

*Elektron nashr, 2026-yil, noyabr.*
*№ 5-maxsus son*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati


Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARI ORQALI MAMLAKAT HUDUDIGA JALB QILINADIGAN INVESTITSIYALAR HISOBI ..... 9
**Misirov Asliddin, Tursunpölatova Durdona, Abdusamadov Sanjar**
TRANSPORT-LOGISTIKA KOMPANIYALARIDA XALQARO YUK TAŞIŞ JARAYONLARINI SAMARALI BOŞQARIŞ ..... 13
**Kaimov Amirxon, Işmanova Dinora**
ÖZBEKISTON KORXONALARIDA KOMPANIYA QIYMATINI BAHOLAŞ MUAMMOLARI (UZAUTO MOTORS AJ MISOLIDA) ..... 19
**D. Ş. Xusanova, Safarova Gulruh**

# ÖZBEKISTON KORXONALARIDA KOMPANIYA QIYMATINI BAHOLAŞ MUAMMOLARI (UZAUTO MOTORS AJ MISOLIDA)

**Ilmiy rahbar: D. Ş. Xusanova**
TDIU, “Moliya” kafedrasi dotsenti, DSc.

**Talaba: Safarova Gulruh Akmal qizi**
TDIU, Iqtisodiyot fakulteti, I-53/24-guruh talabasi
*E-mail: gulruhsafarova0116@gmail.com*
*ORCID: 0009-0002-4020-7826*

**Annotatsiya.** UzAuto Motors AJ misolida Özbekiston korxonalarida kompaniya qiymatini baholaş muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda IFRS moliyaviy hisobotlari, Toşkent fond birjasi ma’lumotlari va Moody’s reytingi asosida daromad, bozor hamda xarajat yondaşuvlari qöllanilgan. Tahlil natijalariga köra, sof foydaning ösişi kompaniyaning asosiy operatsion samaradorligi oşganini töliq aks ettirmasligi, aksiyalarning past likvidligi esa bozor kapitallaşuvining kompaniya haqiqiy qiymatidan farqlanişiga sabab bölişi mumkinligi aniqlangan. Valyuta riskini alohida hisobga oliş, bir neçta baholaş usulini muvofiqlaştiriş va moliyaviy hisobotlarning şaffofligini oşiriş tavsiya etilgan.

**Kalit sözlar:** kompaniya qiymati, DCF usuli, P/E, P/B, bozor kapitallaşuvi, UzAuto Motors, Toşkent fond birjasi, moliyaviy tahlil.

**Аннотация.** На примере АО «UzAuto Motors» проанализированы проблемы оценки стоимости компаний в Узбекистане. В исследовании применены доходный, сравнительный (рыночный) и затратный подходы на основе финансовой отчётности по МСФО, данных Ташкентской фондовой биржи и кредитного рейтинга Moody’s. Результаты анализа показали, что рост чистой прибыли не всегда в полной мере отражает повышение эффективности основной операционной деятельности компании, а низкая ликвидность акций может приводить к отклонению рыночной капитализации от справедливой стоимости компании. Рекомендованы отдельный учёт валютного риска, согласование результатов нескольких методов оценки и повышение прозрачности финансовой отчётности.

**Ключевые слова:** стоимость компании, метод DCF, P/E, P/B, рыночная капитализация, UzAuto Motors, Ташкентская фондовая биржа, финансовый анализ.

**Abstract.** The challenges of company valuation in Uzbekistan are analyzed using UzAuto Motors JSC as a case study. The study applies income-based, market-based, and cost-based valuation approaches using financial statements prepared in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS), data from the Tashkent Stock Exchange, and Moody’s credit rating. The findings indicate that net profit growth may not fully reflect improvements in a company’s core operating performance, while low stock liquidity may cause market capitalization to deviate from the company’s fair value. The study recommends separately accounting for foreign exchange risk, reconciling the results of multiple valuation methods, and enhancing financial reporting transparency.

**Keywords:** company valuation, discounted cash flow (DCF) method, P/E ratio, P/B ratio, market capitalization, UzAuto Motors, Tashkent Stock Exchange, financial analysis.

## KIRIŞ

Kompaniya qiymatini baholaş zamonaviy moliyaviy iqtisodiyotning muhim yönalişlaridan biri bölib, korxona aktivlari, majburiyatlari, daromadlari, rentabelligi va kelajakdagi pul oqimlari asosida uning iqtisodiy qiymatini anıqlaşga qaratilgan. Kompaniya qiymati faqat balansdagi aktivlar yiğindisi bilan çeklanmaydi; u brend, işlab çiqariş quvvati, boşqaruv samaradorligi, valyuta risklari, qarz yuklamasi va kelajakda olinadigan pul oqimlari bilan ham boğliqdir. Şu sababli kompaniya qiymatini baholaş investitsiya qarorlari, aksiyalarni sotib oliş va sotiş, M&A bitimlari, IPO jarayonlari hamda kredit resurslarini jalb qiliş üçün muhim ahamiyatga ega.

Özbekistonda kapital bozori rivojlanib borayotgan şaroitda kompaniya qiymatini töğri baholaş masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, Toşkent fond birjasida listingdan ötgan kompaniyalarda aksiya narxi, bozor kapitallaşuvi va moliyaviy körsatkiçlar örtasidagi boğliqlikni tahlil qiliş muhim ahamiyatga ega. Şu bilan birga, moliyaviy hisobotlar sifatini oşiriş, aksiyalar likvidligini yaxşilaş, bozor ma’lumotlari bazasini kengaytiriş,

valyuta kursi özgarişlarini va qarz yuklamasini hisobga oliş kompaniya qiymatini aniq baholaşda muhim omillar hisoblanadi.

Xalqaro adabiyotlarda kompaniya qiymatini baholaşning daromad, bozor va xarajat yondaşuvlari keng örganilgan. Özbekistonda esa baholaş faoliyati va kapital bozorini tartibga soliş masalalari köproq nazariy va huquqiy jihatdan yoritilgan. Şu bilan birga, listing kompaniyasi misolida DCF, P/E, P/B va NAV usullarini birgalikda qöllaş hamda ularning amaliy xususiyatlarini tahlil qilişni yanada çuqurlaştiriş imkoniyatlari mavjud.

Şu bois tadqiqotning asosiy muammosi sof foyda, bozor kapitallaşuvi va aktivlar qiymatini qanday şaroitlarda birgalikda tahlil qiliş zarurligi bilan boğliq. Ayniqsa, sof foyda ösişi valyuta kursi natijalari hisobiga yuzaga kelgan bölsa, uni barqaror operatsion samaradorlik ösişi sifatida qabul qiliş qöşimça tahlilni talab etadi.

Mazkur maqolada UzAuto Motors AJ misolida Özbekiston korxonalarida kompaniya qiymatini baholaş muammolari tahlil qilinadi. UzAuto Motors Toşkent fond birjasida UZMT kodi bilan savdo qilinadigan yirik avtomobil işlab çiqaruvçi korxona bölib, IFRS asosidagi moliyaviy hisobotlarini e'lon qiladi. Kompaniyaning 2025-yilgi moliyaviy natijalarida sof foyda oşgan bölsa-da, mijozlar bilan tuzilgan şartnomalardan tuşadigan daromad kamaygan va foyda ösişining muhim qismi valyuta kursi natijalari bilan boğliq bölgan. Bu holat kompaniya qiymatini baholaşda sof foyda bilan bir qatorda asosiy faoliyatdan olinadigan pul oqimlarini alohida tahlil qiliş zarurligini körsatadi.

Maqolaning maqsadi – Özbekiston korxonalarida kompaniya qiymatini baholaş jarayonidagi asosiy muammolarni anıqlaş hamda UzAuto Motors AJ misolida ularning moliyaviy-iqtisodiy mohiyatini oçib berişdan iborat.

Tadqiqotda quyidagi gipoteza tekşiriladi: UzAuto Motors AJning bozor kapitallaşuvi uning asosiy faoliyatidan olinadigan pul oqimlari, aktivlar qiymati va valyuta riski hisobga olinganda haqiqiy iqtisodiy qiymatini töliq aks ettirmasligi mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi şundaki, unda UzAuto Motors AJning IFRS hisobotlari, Toşkent fond birjasi ma'lumotlari va Moody's reytingi asosida daromad, bozor va xarajat yondaşuvlari birgalikda qöllanadi. Bu yondaşuv Özbekiston korxonalarida qiymatni baholaş masalalarini faqat nazariy jihatdan emas, balki real listing kompaniyasi misolida tahlil qiliş imkonini beradi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa investorlar, aksiyadorlar va kredit muassasalari üçün kompaniya qiymatini baholaşda valyuta riski, operatsion foyda va bozor likvidligini birgalikda hisobga oliş böyiça tavsiyalar işlab çiqişdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Kompaniya qiymatini baholaş masalasi xalqaro moliyaviy iqtisodiyot va korporativ moliya nazariyasida keng örganilgan yönalişlardan biridir. Xorijiy adabiyotlarda kompaniya qiymati korxona aktivlari, majburiyatlari, kelajakdagi pul oqimlari, risk darajasi va bozor talabi asosida aniqlanadigan iqtisodiy kategoriya sifatida talqin etiladi. A. Damodaran kompaniya qiymatini baholaşda asosiy e'tiborni kelajakdagi erkin pul oqimlariga, diskont stavkasiga va kompaniyaning ösiş imkoniyatlariga qaratadi [6]. Uning fikriça, kompaniyaning içki qiymati faqat hozirgi foydasi bilan emas, balki kelajakda olinişi kutilayotgan pul oqimlarining hozirgi qiymati asosida belgilanadi.

Koller va hammualliflar korxona qiymatini belgilovçi asosiy omillar sifatida investitsiya qilingan kapital rentabelligi va ösiş sur'atlarini ajratib körsatadilar. Şuningdek, ular korxona qiymatini baholaşda sof foydadan köra erkin pul oqimiga asoslanış muhimligini ta'kidlaydilar [7]. Pratt va Niculita yopiq va likvidligi past kompaniyalarda nazorat mukofoti hamda bozorboplikning pastligi uchun çegirmani alohida hisobga olişni tavsiya etadilar [8].

Modigliani va Miller kapital tuzilmasi bilan korxona qiymati örtasidagi boğliqlikni nazariy jihatdan asoslab berganlar [9]. Kaplan va Ruback esa diskontlangan pul oqimlari (DCF) hamda bozor köpaytmalari usullarining baholaş aniqligini empirik jihatdan tahlil qilganlar [10]. Ularning tadqiqotlari har ikkala usul ham işonçli baholaş natijalarini berişi mumkinligini, biroq alohida qöllanilganda muayyan tafovutlar yuzaga kelişi ehtimolini körsatadi. IFRS 13 [4] va Xalqaro baholaş standartlari [5] adolatli qiymat va kiruvçi ma'lumotlar ierarxiyasini belgilaydi.

Milliy me'yoriy bazada baholaş faoliyati «Baholaş faoliyati töğrisida»gi Qonun hamda 2024-yil 1-yanvardan amal qilayotgan Yagona milliy baholaş standarti (YaMBS) bilan tartibga solinadi. Ularda qiymat turlari, baholaş yondaşuvlari va biznes qiymatini baholaşga oid qoidalar kompaniyani baholaş üçün muhim ahamiyatga ega [1].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot Özbekiston korxonalarida kompaniya qiymatini baholaş bilan boğliq muammolarni anıqlaş maqsadida UzAuto Motors AJ misolida moliyaviy körsatkiçlar tahlili va baholaşning qiyosiy usullariga asoslandi.

Tadqiqotda kompaniya qiymati bozor, xarajat va daromad yondaşuvlari orqali baholandi. Baholaşning nazariy va me'yoriy asoslari Yagona milliy baholaş standarti, Xalqaro baholaş standartlari hamda kompaniyalarni baholaş böyiça ilmiy adabiyotlardan foydalaniş orqali şakllantirildi.

Tadqiqotning axborot bazasini UzAuto Motors AJning 2024-yil üçün auditlangan konsolidatsiyalaşgan moliyaviy hisoboti [2], 2025-yilning birinçi yarim yilligi uchun oraliq hisoboti [11], 2025-yil yakunlariga doir oçiq axborotlar [12; 13], Moody's Ratings hisobotlari [14] va Toşkent respublika fond birjasining aksiyalar savdosiga oid ma'lumotlari [15] taşkil etdi. Turli manbalardagi tafovutlar mavjud bölganda moliyaviy körsatkiçlar uchun auditlangan hisobotlarga, aksiyalar narxi va savdo faolligi uchun esa birja ma'lumotlariga ustuvorlik berildi. Turli davrlarga tegishli ma'lumotlar özaro taqqoslanganda ularning hisobot sanalari va işonçlilik darajasi hisobga olindi.

Bozor yondaşuvida aksiyaning narxi va moliyaviy körsatkiçlar örtasidagi nisbatni ifodalovçi P/E (narxning bir aksiyaga töğri keladigan foydaga nisbati) hamda P/B (narxning bir aksiyaga töğri keladigan balans qiymatiga nisbati) körsatkiçlari tahlil qilindi. Şuningdek, 2026-yil 23-sentabrdan 21-oktabrgaça bölgan 20 savdo kuni böyiça savdo hajmi va aylanmasi örganilib, bozor likvidligining baholaş natijalariga ta'siri körib çiqildi. Xarajat yondaşuvida sof aktivlar qiymati (NAV) aktivlar va majburiyatlar örtasidagi farq sifatida anıqlandi. Daromad yondaşuvida diskontlangan pul oqimlari (DCF) usuli qöllanilib, korxona qiymati kelajakdagi korxonaga erkin pul oqimlarining joriy qiymati sifatida hisoblandi:

$$EV = \sum_{t=1}^{n} \frac{FCFF_t}{(1+WACC)^t} + \frac{TV}{(1+WACC)^n}$$

$$TV = \frac{FCFF_{n+1}}{WACC - g}$$

$$NAV = \text{Aktivlar} - \text{Majburiyatlar}$$

Bunda EV – korxona qiymati, FCFF – korxonaga erkin pul oqimi, WACC – kapitalning örtaça tortilgan qiymati, TV – terminal qiymat, g – uzoq muddatli ösiş sur'ati. Xususiy kapital qiymatini anıqlaşda korxona qiymatidan sof qarz ayirildi. DCF tahlilida normallaştirilgan FCFF 200 mln AQŞ dollari miqdorida namunaviy faraz sifatida qabul qilindi, WACC 12–16 foiz, uzoq muddatli ösiş sur'ati esa 2–4 foiz oralığında özgartirilib, sezgirlik tahlili ötkazildi. Mazkur farazlar aniq prognoz emas, balki baholaş natijalarining asosiy parametrlar özgarişiga ta'sirçanligini körsatiş uchun qöllanildi.

Qöşimça ravişda, foyda sifatini baholaşda valyuta operatsiyalaridan kelib çiqqan natijalarning ta'siri alohida körib çiqildi. AQŞ dollarida ifodalangan körsatkiçlarni sömga ötkazişda 2026-yil 22-oktabrdagi 1 AQŞ dollari üçün 11 965,51 söm kursidan foydalanildi. Yakuniy qiymatni anıqlaşda yondaşuvlarning ma'lumotlar sifati, bozor likvidligi va hisob-kitob farazlariga sezgirligi hisobga olindi. Şu orqali Özbekiston korxonalarida kompaniya qiymatini işonçli baholaşga ta'sir etuvçi omillarni anıqlaşga e'tibor qaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Toşkent respublika fond birjasi ma'lumotlariga köra, UzAuto Motors AJning 270 784 703 dona oddiy aksiyasi muomalaga çiqarilgan bölib, ularning nominal qiymati 5 000 sömni taşkil etadi [2; 15]. 2026-yil 21-oktabrda aksiyaning yopiliş narxi 55 000 sömga, bozor kapitallaşuvi esa 14,89 trln sömga teng bölgan. Şu bilan birga, kompaniyaning bozor qiymatini baholaşda aksiyalar narxidan taşqari savdo faolligi va erkin muomaladagi aksiyalar uluşini ham hisobga oliş zarur. 1-jadvalda 2026-yil 23-sentabrdan 21-oktabrgaça bölgan 20 ta savdo kuni böyiça likvidlik körsatkiçlari keltirilgan.

1-jadval
UZMT aksiyalari böyiça bozor va likvidlik körsatkiçlari[1]

| Körsatkiç | Qiymati |
|---|---|
| Çiqarilgan oddiy aksiyalar soni | 270 784 703 dona |
| Nominal qiymati | 5 000 söm |
| Yopiliş narxi (2026-yil 21-oktabr) | 55 000 söm |
| Bozor kapitallaşuvi (55 000 söm böyiça) | 14,89 trln söm (≈ 1 245 mln AQŞ dollari) |
| Savdo kunlari soni (2026-yil 23-sentabr – 21-oktabr) | 20 |

1 Manba: Toşkent respublika fond birjasi [15] ma'lumotlari, UzAuto Motors [2] va Moody's [14] asosida muallif hisob-kitobi. Dollar ekvivalenti Spot.uz [13] saytida 2026-yil 22-oktabr holatiga keltirilgan 1 AQŞ dollari uchun 11 965,51 söm kursi böyiça hisoblangan.

| | |
|---|---|
| Örtaça kunlik savdo | 194,7 dona; 10,8 mln söm (≈ 904 AQŞ dollari) |
| Kunlik aylanma medianasi | 8,5 mln söm |
| Eng yuqori / eng past kunlik aylanma | 40,1 mln söm (727 dona) / 2,6 mln söm (47 dona) |
| Yopiliş narxi diapazoni | 54 150–57 200 söm |
| Davlat uluşi | 99,7 foiz |
| Erkin muomaladagi uluş (taxminiy) | 0,3 foiz ≈ 812 ming dona ≈ 44,7 mlrd söm (≈ 3,7 mln AQŞ dollari) |
| Örtaça kunlik aylanma / kapitallaşuv | 0,00007 foiz |

2026-yil 23-sentabrdan 21-oktabrgaça bölgan 20 ta savdo kunining tahlili aksiyalar likvidligini yanada rivojlantiriş imkoniyatlari mavjudligini körsatdi (1-jadval). Uşbu davrda jami 3 894 dona aksiya savdo qilingan bölib, bu çiqarilgan aksiyalarning 0,0014 foiziga teng. Örtaça kunlik savdo hajmi 194,7 dona, örtaça kunlik aylanma esa 10,8 mln sömni taşkil etgan. Davlat uluşining 99,7 foizni taşkil etişi erkin muomaladagi aksiyalar hajmiga ta'sir körsatadi.




1-rasm. UZMT aksiyalarining kunlik yopiliş narxi va savdo hajmi[2] (2026-yil 23-sentabr – 21-oktabr)

Erkin muomaladagi taxminiy 812 ming dona aksiyani örtaça kunlik savdo hajmida sotiş üçün 4 000 dan ortiq savdo kuni talab etiladi. Aksiyaning kuzatilgan narxi 54 150–57 200 söm oralığında özgargan bölsa-da, savdo faolligi körsatkiçlarini hisobga olgan holda mazkur barqarorlikni bozor talabi va taklifining töliq ifodasi sifatida talqin qilişda qöşimça tahlil zarur (1-rasm). Demak, birja kotirovkasi kompaniya qiymatini baholaş üçün muhim manba bölib, likvidlik darajasini hisobga olgan holda undan mustaqil qiymat mezoni sifatida foydalaniş maqsadga muvofiq.

UzAuto Motors AJning moliyaviy natijalari daromad va operatsion samaradorlik körsatkiçlarida muayyan özgarişlar mavjudligini körsatadi. 2025-yilda sof tuşum taxminan 4,08 mlrd AQŞ dollarini taşkil etib, 2024-yilga nisbatan 3,7 foizga kamaygan. Yalpi foyda 21 foizga, operatsion foyda esa 23,7 foizga qisqargan. Natijada operatsion foyda marjasi 9,0 foizdan 7,2 foizgaça özgargan (2-jadval). Bu holat kompaniyaning asosiy faoliyatidan olinayotgan foyda darajasini yanada çuqurroq tahlil qiliş zarurligini körsatadi.

2-jadval
UzAuto Motors AJning asosiy moliyaviy natijalari, mln AQŞ dollari[3]

| 2023 | 2024 | **2025** | **2025/2024** |
|---|---|---|---|
| 4 609,6 | 4 239,6 | 4 081 | −3,7 % |
| 630,7 | 582,2 | 459,7 | −21,0 % |
| 469,2 | 383,3 | 292,5 | −23,7 % |
| 44,3 | 65,6 | 94,6 | +44,3 % |
| −82,3 | −25,6 | +62,6 | — |

2 Manba: Toşkent respublika fond birjasi [15] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
3 Manba: 2023–2024-yillar – UzAuto Motors [2] auditdan ötgan hisoboti; 2025-yil – qisqartirilgan hisobot [12; 13]. Marjalar muallif hisob-kitobi asosida aniqlangan.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 333,8 | 314,9 | 339,6 | +7,8 % |
| 13,7 | 13,7 | 11,3 | −2,5 p.p. |
| 10,2 | 9,0 | 7,2 | −1,9 p.p. |
| 7,2 | 7,4 | 8,3 | +0,9 p.p. |

Şu bilan birga, sof foyda 314,9 mln dollardan 339,6 mln dollarga, ya'ni 7,8 foizga oşgan. Mazkur ösiş operatsion natijalardagi özgarişlar bilan bir qatorda moliyaviy omillar ta'sirini ham hisobga olişni talab etadi. Xususan, moliyaviy daromad 65,6 mln dollardan 94,6 mln dollarga kötarilgan, valyuta kursi böyiça natija esa 25,6 mln dollarlik zarardan 62,6 mln dollarlik foydaga özgargan. Uşbu ikki körsatkiçdagi ijobiy özgariş operatsion foydaning 90,8 mln dollarga kamayişini qoplaşga yordam bergan.

Valyuta kursi natijasining ta'sirini çiqarib taşlab, 15 foizlik soliq stavkasini hisobga olgan taxminiy hisob-kitobda sof foyda 2024-yildagi 336,7 mln dollardan 2025-yilda 286,4 mln dollargaça kamayadi. Bu hisob valyuta natijasini alohida ajratişning soddalaştirilgan usuli bölib, boşqa moliyaviy omillar va soliq ta'siridagi tafovutlarni töliq aks ettirmaydi. Şu bilan birga, natijalar hisobotdagi sof foyda ösişini kompaniyaning asosiy faoliyati samaradorligidagi özgarişlar bilan birgalikda baholaş zarurligini körsatadi. 2025-yilning birinçi yarim yilligida tuşumning 12 foizga, asosiy egalarga tegishli sof foydaning esa 17 foizga kamaygani ham uşbu xulosani qöllab-quvvatlaydi [11].

2025-yil oxirida kompaniyaning jami aktivlari taxminan 2,6 mlrd dollarni, xususiy kapitali esa 1,3 mlrd dollarni taşkil etgan [12; 13]. Yaxlitlangan ma'lumotlar asosida hisoblangan aktivlar rentabelligi (ROA) taxminan 13,4 foizni, xususiy kapital rentabelligi (ROE) esa 30,7 foizni taşkil qiladi. Şu bilan birga, rentabellik körsatkiçlarini baholaşda sof foydaning valyuta va moliyaviy daromadlarga boğliqligini ham hisobga oliş lozim.

Aylanma mablağlar tarkibida ham muhim özgarişlar kuzatilgan. Zaxiralar 2024-yil oxiridagi 1 009,4 mln dollardan 2025-yil iyun oyida 1 258,2 mln dollargaça oşgan. Jismoniy şaxslardan debitorlik qarzi esa 2023-yildagi 2,6 mln dollardan 2024-yilda 261,2 mln dollarga, 2025-yil iyun oyida 342,6 mln dollarga yetgan. Mijozlardan olingan avanslarning 347,9 mln dollardan 128,4 mln dollargaça kamayişi bilan birgalikda qaralganda, uşbu tendensiyalar aylanma kapitalga bölgan ehtiyoj va kredit riskini muntazam baholab boriş ahamiyatini körsatadi [2; 11].

Moody's Ratings ma'lumotlariga köra, kompaniyaning qarz/EBITDA körsatkiçi 1,1 baravar, EBITDAning foiz xarajatlarini qoplaş koeffitsiyenti esa 12,7 baravar bölgan [14]. Bu körsatkiçlar qarz yuklamasining nisbatan boşqariladigan darajada ekanini körsatadi, şu bilan birga, qisqa muddatli likvidlikni ham alohida baholaş maqsadga muvofiq. 2025-yil iyun oyida jami qarz 534,3 mln dollarga yetgan va uning 86 foizi qisqa muddatli majburiyatlardan iborat bölgan. İşçi kapital çiqimlari sababli erkin pul oqimining manfiy bölişi ham qarzlarni qaytariş imkoniyatini baholaşda muhim omildir.

Valyuta risklari ham kompaniya qiymatiga ta'sir körsatadi. 2024-yil oxirida dollardagi pul majburiyatlari 873,9 mln dollarni, pul aktivlari esa 210,7 mln dollarni taşkil etgan. Natijada sof qisqa valyuta pozitsiyasi 663,2 mln dollarni taşkil etgan. Boşqa şartlar özgarmagan holatda dollar kursining 10 foizga mustahkamlanişi taxminan 66,3 mln dollarlik salbiy moliyaviy ta'sirni yuzaga keltirişi mumkin. Şu sababli valyuta kursi özgarişlarini baholaş modelida alohida hisobga oliş zarur.

Bozor yondaşuvida 2026-yil 21-oktabrdagi 55 000 sömlik aksiya narxi asosida P/E körsatkiçi taxminan 3,65 ni, P/B esa 0,95 ni taşkil etadi. Valyuta kursi natijasi çiqarib taşlangan EPS asosida P/E taxminan 4,33 ga teng. 2025-yilda tölangan jami 6 139 sömlik dividendlar hisobga olinsa, dividend daromadliligi taxminan 11,2 foizni taşkil qiladi. Şu bilan birga, aksiyalar likvidligi darajasini hisobga oliş mazkur körsatkiçlar asosida kompaniya qiymatini yanada aniqroq baholaş imkonini beradi.

Daromad yondaşuvi (DCF) natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Xususiy kapital qiymatining sezgirligi (FCFF = 200 mln AQŞ dollari), mln AQŞ dollari[4]

| WACC / g | g = 2 % | g = 3 % | g = 4 % |
|---|---|---|---|
| 12 % | 1 648 | 1 897 | 2 208 |
| 14 % | 1 308 | 1 481 | 1 688 |
| 16 % | 1 065 | 1 193 | 1 341 |

Daromad yondaşuvida diskontlangan pul oqimlari modeli normallaştirilgan 200 mln dollarlik FCFF

4 Manba: muallif hisob-kitobi (Gordon modeli: EV = FCFF × (1 + g) / (WACC − g); xususiy kapital = EV − sof qarz (391,9 mln AQŞ dollari)). Namunaviy hisob-kitob; investitsiya tavsiyasi emas.

asosida hisoblandi. WACC 12–16 foiz, uzoq muddatli ösiş sur'ati esa 2–4 foiz oralığında özgartirilib, sezgirlik tahlili ötkazildi (3-jadval). Markaziy ssenariyda, ya'ni WACC 14 foiz va ösiş sur'ati 3 foiz bölganda, sof qarz çegirilgandan keyingi xususiy kapital qiymati taxminan 1 481 mln dollarni taşkil etdi. Bu bozor kapitallaşuvidan qariyb 19 foiz yuqori. Şu bilan birga, turli farazlarda baholaş natijalarining sezilarli özgarişi DCF modelining pul oqimlari va diskont stavkasiga yuqori darajada sezgirligini körsatadi.

Xarajat yondaşuvida balans ma'lumotlari asosidagi sof aktivlar qiymati taxminan 1,3 mlrd dollar yoki 15,6 trln sömga teng deb baholandi. Bu körsatkiç 14,89 trln sömlik bozor kapitallaşuvidan qariyb 4,7 foiz yuqori. Şu bilan birga, balans qiymati aktivlarning joriy bozor qiymati va kompaniyaning kelajakdagi daromad oliş imkoniyatlari bilan birgalikda baholanişi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, uçta yondaşuv natijalari kompaniya qiymatini kompleks baholaş ahamiyatini tasdiqlaydi. Bozor yondaşuviga aksiyalar likvidligi, xarajat yondaşuviga aktivlarning balansda aks ettiriliş xususiyatlari, daromad yondaşuviga esa pul oqimlari va diskont stavkasi haqidagi farazlar ta'sir körsatadi. Şu sababli yakuniy qiymatni muvofiqlaştirişda yondaşuvlarga beriladigan vazn ularning nazariy ahamiyatigagina emas, balki foydalanilgan ma'lumotlarning işonçliligi va baholaş maqsadiga muvofiqligiga ham asoslanişi lozim.

Tadqiqot natijalari Özbekiston korxonalarida kompaniya qiymatini baholaşda moliyaviy körsatkiçlar bilan bir qatorda bozor likvidligi, valyuta riski va moliyaviy axborotning işonçliligini ham hisobga oliş zarurligini körsatadi. UzAuto Motors AJ misolida sof foyda ösişi operatsion foydaning ösişi bilan bir xil mazmunga ega emasligi anıqlandi. Şu sababli kompaniya qiymatini anıqlaşda hisobotdagi sof foyda bilan bir qatorda bir martalik va valyuta bilan boğliq natijalar ta'siridan tozalangan pul oqimlarini tahlil qiliş maqsadga muvofiq.

Bozor yondaşuvining asosiy xususiyatlaridan biri aksiyalar likvidligi va erkin muomaladagi uluş hajmi bilan boğliq. Bunday şaroitda birja narxi muayyan miqdordagi bitimlarni aks ettirişi va nazorat paketining iqtisodiy qiymatini baholaşda qöşimça mezonlardan foydalaniş zarur bölişi mumkin. Bundan taşqari, Özbekiston bozorida taqqoslanadigan kompaniyalar bazasini kengaytiriş P/E va P/B körsatkiçlarini boşqa korxonalar bilan soliştiriş imkoniyatlarini yaxşilaydi. Demak, bozor yondaşuvini boşqa baholaş yondaşuvlari natijalarini tekşiriş va muvofiqlaştiriş vositasi sifatida qöllaş maqsadga muvofiq.

Daromad yondaşuvi kompaniyaning kelajakdagi pul oqimlarini hisobga olişi bilan afzallikka ega. Şu bilan birga, DCF natijalari erkin pul oqimi, kapital qiymati va uzoq muddatli ösiş sur'ati haqidagi farazlarga sezgir. Şu bois baholaşda bir neçta ssenariyni hisoblaş, valyuta va diskont stavkasining özaro muvofiqligini ta'minlaş hamda ehtimoliy majburiyatlarni alohida baholaş zarur. Xarajat yondaşuvida esa aktivlarning balans qiymati bilan ularning joriy iqtisodiy qiymati örtasidagi muvofiqlikni baholaş muhim ahamiyatga ega. Bu holat, ayniqsa, eskirgan asosiy vositalar, zaxiralar, debitorlik qarzlari va nomoddiy aktivlarni baholaşda muhim hisoblanadi [1].

Tahlil natijalari korporativ boşqaruv va axborot şaffofligi ham kompaniya qiymatiga ta'sir qilişini körsatadi. Davlat uluşining yuqoriligi, aloqador tomonlar bilan bitimlar, dividend siyosati va ehtimoliy sud majburiyatlari kelajakdagi pul oqimlarini prognozlaşda hisobga olinişi lozim [2; 14]. Şu munosabat bilan korxonalar moliyaviy hisobotlarni muntazam e'lon qilişi, valyuta risklarini oçib berişi va muhim majburiyatlar töğrisida töliq axborot taqdim etişi zarur.

Umuman, Özbekiston korxonalarida qiymatni işonçli baholaş üçün DCF, bozor köpaytmalari va sof aktivlar qiymatini birgalikda qöllaş, yakuniy natijani esa ma'lumotlar sifati va baholaş maqsadiga qarab muvofiqlaştiriş tavsiya etiladi. Fond bozori likvidligini oşiriş va moliyaviy hisobotlar şaffofligini yaxşilaş ham baholaş natijalarining işonçliligini kuçaytiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot UzAuto Motors AJ misolida kompaniya qiymatini baholaşga moliyaviy natijalar, fond bozori likvidligi, valyuta riski va axborot şaffofligi birgalikda ta'sir körsatişini anıqladi. 2025-yilda sof foydaning 7,8 foizga oşişi operatsion foydaning 23,7 foizga kamayişi bilan birga kuzatilgan. Bu holat kompaniya qiymatini baholaşda sof foyda bilan bir qatorda boşqa moliyaviy körsatkiçlardan ham foydalaniş zarurligini körsatadi.

Fond bozori likvidligi va erkin muomaladagi aksiyalar uluşi birja narxining iqtisodiy qiymatni aks ettiriş darajasiga ta'sir körsatişi mumkin. Şu sababli bozor köpaytmalarini boşqa baholaş usullarini tekşiriş vositasi sifatida qöllaş maqsadga muvofiq. DCF usuli kelajakdagi pul oqimlari va risklarni hisobga oliş imkonini beradi, şu bilan birga, uning natijalari asosiy farazlarga sezgir. Şuning uchun qiymatni bir neçta ssenariy asosida anıqlaş maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, Özbekiston korxonalarida kompaniya qiymatini işonçli baholaş uchun moliyaviy hisobotlar şaffofligini oşiriş, valyuta riskini hisobga oliş, bir neçta baholaş yondaşuvini muvofiqlaştiriş va kapital bozori likvidligini rivojlantiriş zarur. Uşbu çoralar xususiylaştiriş va yirik investitsiya bitimlarida kompaniya qiymatini iqtisodiy jihatdan asoslaş sifatini oşirişga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI


1. Özbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boşqariş agentligi. Özbekiston Respublikasining Yagona milliy baholaş standartini tasdiqlaş töğrisida : 2023-yil 25-oktabrdagi 01/11-14/29-son buyruq (2023-yil 28-dekabrda 3487-son bilan davlat röyxatidan ötkazilgan) [Elektron resurs]. – 2023. – URL: https://lex.uz/docs/-6720235.
2. UzAuto Motors AJ. Consolidated Financial Statements for the Year Ended 31 December 2024 and Independent Auditor's Report [Elektron resurs]. – 2025. – URL: https://uzautomotors.com/documents/uzautomotorsifrsreportfy2024-30-may.pdf.
3. UzAuto Motors xususiylaştirilişi böyiça Davlat aktivlarini boşqariş agentligi brifingi haqida yangilik [Elektron resurs] // Spot.uz. – 2026-yil 8-oktabr. – URL: https://www.spot.uz/en/2026/10/08/uzauto-motors/.
4. IFRS Foundation. IFRS 13 Fair Value Measurement. – IFRS Foundation, 2011.
5. International Valuation Standards Council. International Valuation Standards. – IVSC, 2024.
6. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – 3rd ed. – John Wiley & Sons, 2012.
7. Koller T., Goedhart M., Wessels D. Valuation: Measuring and Managing the Value of Companies. – 7th ed. – John Wiley & Sons, 2020.
8. Pratt S. P., Niculita A. V. Valuing a Business: The Analysis and Appraisal of Closely Held Companies. – 5th ed. – McGraw-Hill, 2008.
9. Modigliani F., Miller M. H. The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment // The American Economic Review. – 1958. – Vol. 48, № 3. – P. 261–297.
10. Kaplan S. N., Ruback R. S. The Valuation of Cash Flow Forecasts: An Empirical Analysis // The Journal of Finance. – 1995. – Vol. 50, № 4. – P. 1059–1093.
11. UzAuto Motors AJ. Interim Condensed Consolidated Financial Information for the Six Months Period Ended 30 June 2025 (Unaudited) [Elektron resurs]. – 2025. – URL: https://uzautomotors.com/documents/financial-statements-uam-1h-2025-with-signature-and-stamp.pdf.
12. UzAuto Motors Increases Net Profit to $339.6 Million Despite Revenue Dip [Elektron resurs] // Kun.uz. – 2026-yil 10-iyun. – URL: https://kun.uz/en/news/2026/06/10/uzauto-motors-increases-net-profit-to-3396-million-despite-revenue-dip-ba632d.
13. UzAuto Motors увеличила прибыль в 2025 году при снижении выручки [Электронный ресурс] // Spot.uz. – 2026-yil 10-iyun. – URL: https://www.spot.uz/ru/2026/06/10/uzauto-report/.
14. Moody's Ratings. Rating Action: Moody's Ratings Assigns First Time Ba3 Rating to UzAuto Motors; Outlook Stable [Elektron resurs]. – 2025-yil 12-may. – URL: https://uzautomotors.com/documents/prospectus/ratingaction-moodys-ratings-assigns-first-12may2025-pr506169.pdf.
15. Toşkent respublika fond birjasi. UzAuto Motors AJ (UZMT) aksiyalari böyiça bozor ma'lumotlari [Elektron resurs] : ma'lumotlar bazasi. – 2026. – URL: https://uzse.uz/isu_infos/STK?isu_cd=UZ7003040001

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100